



RAQAMLI IQTISODIYOT: AHAMIYATI, JAHON DAVLATLARIDA QO‘LLASH VA KELAJAK PERSPEKTIVLARI

*Jizzax shahri SAMBHRAM universiteti
talabasi Kamoljonova Vasilaxon Jahongir qizi.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotning ahamiyatini, uning jahon davlatlaridagi qo‘llanilishini va kelajakdagi rivojlanish perspektivlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Raqamli iqtisodiyot fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini oshirish, shaffoflikni ta‘minlash va demokratik jarayonlarni samarali qilish imkoniyatlarini yaratadi. Maqolada raqamli demokratiya konsepti, uning asosiy komponentlari va dunyo davlatlarida amalga oshirilgan raqamli demokratiya tashabbuslari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola raqamli demokratiyaning muvaffaqiyatli rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi muammolar, masalan, kiberxavfsizlik, texnologik tenglik va maxfiylik kabi masalalarni ham ko‘rib chiqadi. Kelajakda raqamli demokratiyaning qanday rivojlanishi va qanday yangi imkoniyatlarni yaratishi kutilmoqda. Raqamli iqtisodiyot zamonaviy jamiyatda fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtirok etish imkoniyatini kengaytiruvchi vositalardan biridir. Bu kontseptsiya axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, demokratik jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion g‘oyalar, axborot texnologiyalari, onlayn ovoz berish, elektron hukumat, kiberxavfsizlik, inson huquqlari, ochiq ma‘lumotlar, interaktiv platformalar, raqamli tenglik, demokratik islohatlar, ilm -fan sohasidagi strategiyalar, samarali bosqichlari va malakali kadrlar tayyorlash.

Bugungi kunda Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy faoliyatning raqamli texnologiyalar, internet va ma‘lumotlar bazasi orqali amalga oshirilishini ifodalaydigan iqtisodiy modeldir. Unda an‘anaviy ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va savdo jarayonlari raqamli platformalar orqali optimallashtiriladi. mamlakatda ta‘lim – tarbiya tizimining sifati va samaradorligini



oshirish va rivojlantirishni ta'kidlaydi. Bog'cha tarbiyalanuvchilari. o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm - fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning davomiyligi va uzluksizligi ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Raqamli iqtisodiyot jamiyatning demokratik boshqaruvini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Fuqarolarni davlat boshqaruvida faol ishtirok etishga imkon yaratish, davlatning shaffofligini ta'minlash va qarorlarni samarali qabul qilish uchun raqamli texnologiyalar muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu maqola raqamli demokratiyaning zamonaviy ahamiyatini, dunyo davlatlarining ushbu jarayonda qanday ishtirok etayotganini va uning kelajakdagi rivojlanishini o'rganadi. Raqamli demokratiya – bu zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AQT) yordamida fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini oshirish va demokratik jarayonlarni samarali va shaffof tarzda amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan bir qator tashabbuslardir. Bugungi kunda dunyo miqyosida raqamli demokratiya jamiyatni rivojlantirish, davlat boshqaruvini shaffoflashtirish va fuqarolar ishtirokini kengaytirish maqsadida qo'llanilmoqda. Ushbu maqolada raqamli demokratiyaning ahamiyati, uning asosiy komponentlari va dunyo davlatlarining bu jarayondagi ishtiroki ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, milliy ta'lim – tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim va ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar qilib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun kerakli shart – sharoitlar yaratish bo'yicha kerakli chora – tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Raqamli iqtisodiyot – bu nafaqat texnologik yangilik, balki global iqtisodiy transformatsiya vositasi. Uning rivojlanishi davlatlar daromadlarini oshirish, ish o'rinlarini yaratish va resurslarni optimallashtirish imkonini beradi. Kelajakda raqamli iqtisodiyot ko'proq integratsiyalashgan, xavfsiz va barqaror bo'lishi kutilmoqda. Shuningdek, yurtimizda ta'lim – tarbiya va ilm – fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda talaba va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor



ziyolilarga bo'lgan hurmat – e'tiborini yanada oshirish, o'quvchilarning kabi mahoratini rivojlantirish juda muhim bo'lib bormoqda. Jumladan, inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatni yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish masalalari ham keng yoritilib bormoqda.

2022 — 2026 YILLARGA MO'LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI.

1-maqсад: Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish.

Hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni joyida hal etish maqsadida mahallalar vakolatlarini kengaytirish, ularning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish.

Fuqarolarning o'z mahallasi hayotidagi ishtirokini hamda davlat organlari va mahallalar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqani ta'minlash, mahallalarda aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlarni raqamlashtirish.

Mahalladan turib barcha davlat idoralariga murojaat qilish tizimini yaratish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko'rsatish.

Mahallalarning "o'sish nuqtalari" va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.

Mahallalar uchun yuqori malakali mutaxassislarni maqsadli tayyorlash, barcha mahalla raislari va hokim yordamchilarida boshqaruv asoslari, bandlikni ta'minlash, bank-moliya, tomorqa, er, chorvachilik va parrandachilik bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi institutining samarali faoliyatini yo'lga qo'yish.

2-maqсад: Xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo'g'inga aylantirish.



Xalq deputatlari Kengashlarida doimiy asosda faoliyat yurituvchi deputatlar korpusini shakllantirish va ularning vakolatlarini kengaytirish orqali hududiy ijro organlari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish.

Xalq deputatlari Kengashlarining mahallalardagi muammolarni hal qilishdagi rolini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish, mahalliy budjetni shakllantirish va nazorat qilish bo'yicha ularning mas'uliyatini kuchaytirish.

Mahallalarning joylardagi vakillik organlari bilan, xalq deputatlari Kengashlarining Oliy Majlis Senati bilan, hokimliklarning vazirliklar va ularning hududiy bo'linmalari bilan aloqalarini mustahkamlash.

Mahalliy kengashlarning kotibiyatlari faoliyatini yanada kuchaytirish choralarini ko'rish.

3-maqсад: Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish.

Joylardagi masalalarni hal etishda mahalliy hokimliklarning moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish va har bir vazifa ijrosi, shuningdek sarflanayotgan mablag'lar yuzasidan jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish.

Mahalliy ijro hokimiyati organlarini demokratik tamoyillar asosida shakllantirish, shu jumladan hokimlarni saylash tizimini joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan hududiy ijro organlarining shtat birligi va tuzilmalarini belgilash amaliyotini bosqichma-bosqich kengaytirish, hududlarda amalga oshiriladigan vazifalar bo'yicha "vakolatlar reyestri"ni shakllantirish.

Mahalliy boshqaruv faoliyatiga axborot texnologiyalarni keng joriy qilish, hududlarning 40 dan ortiq, jumladan transport, infratuzilma, ijtimoiy va boshqa sohalar bo'yicha ma'lumotlarni jamlovchi tahliliy geoportallarini ishga tushirish.

4-maqсад: Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish" tamoyili asosida transformatsiya qilish.



Vazirlik va idoralarni tashkil etish va tugatishning aniq tartibi, ularni bir-biridan farqlovchi mezonlarni nazarda tutuvchi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqib, amaldagi davlat boshqaruvi tizimini qayta ko‘rib chiqish.

Davlat boshqaruvi organlarining shtat birliklarini oshirishga cheklov o‘rnatishning tartibini hamda kadrlar va moddiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha aniq mezonlarni belgilash.

Davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvi vujudga kelishini bartaraf etish, mazkur jarayonga keng jamoatchilikni jalb qilish.

Vazirlik va idoralar faoliyatining barcha yo‘nalishlarini “Davlat — xalq xizmatchisi” tamoyili asosida fuqaroga xizmat qilishga yo‘naltirish.

5-maqсад: Ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish.

Vazirlik va idoralar rahbarlariga tashkiliy-huquqiy masalalarni o‘zlari mustaqil hal etishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, qabul qilinayotgan qarorlarning ular tomonidan samarali ijro etilishini ta‘minlash.

Davlat boshqaruvi organlarining hududiy masalalarni hal qilishdagi mas‘uliyati va javobgarligini kuchaytirish hamda ularning strategik yo‘nalishlarini rejalashtirishga qaratilgan yangi tizim yaratish.

Vazirlik va idoralarda ish yuritish va ma‘muriy boshqaruv jarayonlari sifatini oshirish.

6-maqсад: Davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish.

Davlat xizmatida korrupsiya omillarini bartaraf etish, kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish va ular faoliyati samaradorligini baholashning huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Davlat xizmatchilari va davlat organlari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) asosida baholash tizimi bo‘yicha “Milliy reyting” tizimini joriy etish.



Davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish tizimini takomillashtirish.

Mahalliy hokimlik organlari, vazirlik va idoralarga rahbarlik lavozimlari uchun munosib nomzodlarni tayyorlash maqsadida Milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish.

Davlat xizmatiga kirish, zaxirani shakllantirish, baholash va xizmatni o'tash bilan bog'liq jarayonlarni raqamlashtirishni nazarda tutuvchi "Raqamli davlat xizmati" loyihasini amalga oshirish.

7-maqсад: Xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish.

Xalq bilan ochiq muloqotning mexanizmlarini yanada takomillashtirish, muhim qarorlarni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilish amaliyotini kengaytirish.

Davlat organlariga kelib tushgan murojaatlarni jamlovchi markazlashgan tizimni yaratgan holda ularni ko'rib chiqish muddati va sifati ustidan raqamli nazorat o'rnatish, aholining kundalik turmush tarziga bevosita ta'sir qiluvchi masalalar bo'yicha murojaatlar tezkor va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlash.

"Davlat xalqqa xizmat ko'rsatishi shart" g'oyasini tatbiq etishni nazarda tutuvchi "Xalqparvar davlat" milliy dasturi izchil amalga oshirilishini ta'minlash.

Jamoatchilik palatasining faoliyatini samarali tashkil etib, uning fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorligini yo'lga qo'yish va aholini qiynayotgan muammolarni hal etish yo'llarini belgilash jarayoniga faol jalb etish.

Ta'lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib, ularning turlari kengayib bormoqda. Quyidagi asosiy texnologiyalar guruhlarini ajratish mumkin:

1. Fan ta'limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoki AKT. Ushbu texnologiyalardan foydalanish axborot jamiyatining rivojlanishi va hayotning barcha sohalarida axborot vositalarini faol joriy etish bilan bog'liq. Bunday texnologiyalar talabalar ongini axborotlashtirishga qaratilgan. Ta'lim dasturlari informatika, axborot jarayonlari va AKTni o'rganishga qaratilgan yangi fanlarni o'z ichiga oladi. Professor-o'qituvchilar va talabalarning axborot



madaniyatini oshirishga yordam berish uchun o'quv jarayoni ham faol ravishda axborotlashtirilmoqda.

2. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar. Ushbu texnologiyalar shaxsni ta'lim va tarbiyada ustuvor o'ringa qo'yishga qaratilgan. Butun ta'lim jarayoni shaxsning o'ziga xosligi va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsni rivojlantirishga qaratilgan.

3. O'quv jarayonini axborot-tahliliy ta'minlash. Ushbu guruh texnologiyalaridan foydalanish har bir o'quvchi, sinf, parallel, ta'lim muassasasining rivojlanishini o'rganishga, ularni adekvat baholashga qaratilgan.

4. Intellektual rivojlanish monitoringi. Texnologiyalar grafiklardan foydalanishga, test tizimiga, individual o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini va umuman ta'lim sifatini kuzatish imkonini beruvchi yangi baholash usullariga asoslangan.

5. Ta'lim texnologiyalari. O'quv jarayonini ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun shaxsni, uning asosiy fazilatlarini rivojlantirishning yangi usullari joriy etilmoqda.

6. Didaktik texnologiyalar. Ular ta'lim muassasasi rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunday texnologiyalar an'anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan texnika va vositalar majmuasiga asoslanadi: o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, audiovizual, multimedia vositalaridan foydalanish, tabaqalashtirilgan o'qitish usullari. Ilmiy bilimlarni innovatsiyaga aylantirish jarayoni, uni hodisalarning ketma-ket zanjiri sifatida ifodalash mumkin, bu jarayon davomida innovatsiya g'oyadan ma'lum mahsulot, texnologiya yoki xizmatga qadar etuklanadi va amaliy foydalanishda tarqaladi. O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish kerak. Har bir o'qituvchi ta'limga individual tarzda qoniqmaslikdan



kelib chiqadi. Keng qamrovli ishtirok. Raqamli platformalar orqali fuqarolarni siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga jalb qilish yanada osonlashadi.

1. Sun'iy intellekt va big data texnologiyalari fuqarolarning fikrlarini tahlil qilish va ularni siyosiy qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilishni takomillashtiradi.

2. Elektron ovoz berishning keng qo'llanilishi. Elektron ovoz berish tizimlari global miqyosda keng joriy qilinishi mumkin. Bu nafaqat saylovlarda qatnashishni qulaylashtiradi, balki ovoz berish jarayonini tezkor va haqqoniy qiladi.

3. Shaffoflikning kuchayishi. Blokcheyn texnologiyasidan foydalanish orqali davlat xizmatlari va saylov jarayonlarini yanada shaffof va kuzatish mumkin bo'lgan holatga keltirish rejalashtirilmoqda. Bu korrupsiyani kamaytirishga yordam beradi.

4. Tengdoshlararo boshqaruv (Peer-to-Peer Governance). Raqamli demokratiya texnologiyalari davlat boshqaruvini markazsizlashtirish va fuqarolarni o'z hududiy muammolarini mustaqil hal qilish jarayoniga jalb qilish imkonini beradi. Masalan, jamoalar o'z loyihalarini moliyalashtirish yoki mahalliy qonunlarni qabul qilishda to'g'ridan-to'g'ri qatnashishi mumkin.

5. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish. Sun'iy intellekt davlat boshqaruvi va siyosiy qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, AI yordamida fuqarolarning ehtiyojlarini tahlil qilish va ularning muammolariga mos yechimlarni taklif qilish mumkin.

6. Globallashtirish va transmilliy demokratiya. Raqamli platformalar xalqaro hamkorlikni kuchaytiradi. Transmilliy masalalar bo'yicha jamoaviy fikr bildirish va qaror qabul qilish imkoniyatlari kengayadi. Bu, ayniqsa, ekologik muammolar yoki global xavfsizlik bo'yicha muhimdir.

7. Ta'lim va bilimning o'sishi. Kelajakda raqamli demokratiya aholiga davlat boshqaruvi va huquqiy masalalar bo'yicha yanada ko'proq ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Virtual seminarlar, ochiq ma'lumotlar bazalari va onlayn kurslar orqali fuqarolar o'z huquqlarini yaxshi anglab, yanada faol ishtirokchilar bo'lib yetishadi.



8. Adolatli boshqaruvni ta'minlash. Raqamli texnologiyalar turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ko'proq hisobga olishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyot – bu zamonaviy jamiyatni boshqarishda demokratik tamoyillarni takomillashtirish va keng jamoatchilikni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilish uchun innovatsion yondashuvdir. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida fuqarolar va davlat o'rtasidagi aloqalar shaffof, tezkor va samarali shaklda tashkil qilinmoqda. Estoniya, Shvetsiya va Singapur kabi davlatlarning muvaffaqiyatli tajribalari raqamli demokratiyaning boshqaruv tizimini kuchaytirishdagi ahamiyatini namoyon etmoqda. Shu bilan birga, rivojlanayotgan davlatlarda bu jarayonlarni joriy qilish imkoniyatlari texnologik infratuzilmaga bog'liq. Kelajakda raqamli demokratiya sun'iy intellekt, blokcheyn va boshqa ilg'or texnologiyalar yordamida global miqyosda rivojlanib, fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda faolroq ishtirokini ta'minlashi kutilmoqda. Biroq, texnologiyalarni joriy etishda kiberxavfsizlik, texnologik tenglik va ma'lumotlarning maxfiyligi muammolariga e'tibor qaratish zarur. Ushbu masalalarning muvaffaqiyatli hal qilinishi raqamli iqtisodiyotning samaradorligini oshirib, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алдашев И. Использовать специфические свойства компьютера, позволяющие индивидуализировать учебный процесс и обратиться к принципиально новым познавательным средствам. "Экономика и социум" №6(73) 2020 www.iupr.ru
2. <https://serviceproekt.ru/uz/uslugi/klassifikaciya-innovacii-prezentaciya-na-temu-innovacionnye/> © serviceproekt.ru
3. Абдулхаева Ф. Применение информационных технологий в изучении языков является фактором эффективности. "Экономика и социум" №12(91) 2021 www.iupr.ru w May 2022 908 www.oriens.u